



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 621 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlar.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna	
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari	332
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili	336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	342
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna	
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash	352
Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri.....	358
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integratsiyasi istiqbollari.....	362
Ochilov Abdujabbor Akramovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari.....	369
Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna	
Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni	375
Pulatov Shaxron Axmedovich	
Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari.....	379
Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich	
Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida).....	390
Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari.....	397
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna	
Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti	403
Yulduz Usmanova	
Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati	411
Hamroyeva Umda	



Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan	415
Abdualilova Bibisora Bakhodir kizi	
Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv.....	423
Urinov Bobur Nasilloevich	
JAS – barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi	423
Baynazarov Elmurod Erkinovich	
Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo'llari	435
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
The impact of digital financial technologies on the financial system.....	439
Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li, Pardayev Olim Mamayunosovich	
Korxona eksport salohiyatini oshirishning "yashil" marketing mexanizmi	443
To'rayev Shohrux Halimovich	
O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo'llari	448
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalar	453
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Ayollar tadbirkorligining tarixi: O'zbekiston va dunyo bo'yicha rivojlanishi.....	459
Burxanova Sabo Tulanovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar risklarini pasaytirishni takomillashtirish yo'llari.....	466
Xalilov Umid Ishtemirovich	
Korxona moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliga fundamental yondashuv.....	470
Dilshodjon O'rinov, Sanobar Ismoilova	
Iqtisodiy o'zgarishlar davrida korxonalar moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi omil va mezonlari	475
Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
Cash accounting as a tool of financial discipline and transparency in the public sector	481
Marqaboyev Sardorbek Abdusalomovich, Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Пути совершенствования практике финансирования социального предпринимательства.....	486
И.Ж.Исаков	
O'zbekistonda an'anaviy resurslar va qayta ishlanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish	490
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevdal Shamsiddin qizi	
Ijtimoiy salohiyat – hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqaruv obyekti sifatida.....	497
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna, Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
Xorazm oziq-ovqat bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda marketing faoliyatlarini baholash usullari	503
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
Переход к зелёной энергетике узбекистана как возможность достижения устойчивого экономического роста	508
Бай Жин Хуан (Bai Jin xuan)	
Изучение условий финансирования проектов международными банками развития	513
Жалилова Барнохон Суръатжоновна	
O'zbekiston respublikasi budjet jarayonida budjetlarning ochiqqligi va jamoatchilik ishtirokini oshirish.....	517
Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li	
Chiqib ketayotgan aktivlarni hisobga olish va baholash masalalari	522
Kuziyeva Dinora Bahodirovna	
Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri.....	528
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Changes in employee benefits and human resource management in accounting system of the Republic of Uzbekistan	535
Ravshanbekov Lazizbek Tolibjon o'g'li, Toshpulatova Munisabonu	



Iqtisodiyot tarmoqlarida suv iste'molini boshqaruvining raqamlashtirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari.....	541
Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
Теоретические аспекты налогообложения доходов физических лиц на основе всеобщего декларирования	547
Усманова Мухлиса Сагдуллаевна	
Bank tizimini raqamlashtirish va uning bank barqarorligiga ta'siri.....	555
Sayfullayev Jamshidjon Xabibjanovich	
Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining o'rni	560
Saparov Ismat Chorshanbiyevich	
Innovatsion korxonalarda xarajatlar hisobining zamonaviy usullari	565
Turayev Og'abek Kaxramonovich, Ochilov Shavkat Toshmamatovich	
Дополнительные услуги в индустрии гостеприимства как эффективный инструмент продвижения бренда предприятия	570
А.И. Лесников, Д.В. Мамаева	
Преимущества и вызовы перехода на зелёную экономику	580
Умарова Гузал Гайратовна, Лапасова Камола Фарход кизи	
Yashil iqtisodiyot sharoitida hududlarda ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish	586
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li, Djurayeva MaxliyoXon Xayrullayevna	
Yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bevosita soliqlar rolini oshirish masalalari	591
Abdullayev Dilmurod Aliyar o'g'li	
The main directions for improving innovative activities in agriculture	598
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Klaster tizimi orqali O'zbekistonda qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishi	605
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
Inklyuziv ta'lim: adolatli va teng jamiyat sari	610
Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna	
Yashil iqtisodiyot: muammo va yechimlar	615
Boymatov Xoliyor Qurbonovich	



YASHIL IQTISODIYOT: MUAMMO VA YECHIMLAR

Boymatov Xoliyor Qurbonovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Muallif yashil iqtisodiyotni shakllantirish mezonlarini aniqlab, uning iqtisodiy o'sish, bandlik, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikka ta'sirini ochib bergan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotni joriy etish yo'lida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularni hal etish strategiyalari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari, mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda, sarmoya jalb qilish va texnologik innovatsiyalar orqali yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, sarmoya, investitsion muhit, texnologik innovatsiyalar, iqtisodiy o'sish, bandlik, resurslar, ekologik barqarorlik, muammo, yechim.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the transition to a green economy. The author identifies the criteria for green economy formation and examines its impact on economic growth, employment, efficient use of resources, and environmental sustainability. The study also explores key challenges in implementing green economic policies and presents strategic solutions. Based on international experiences, the findings highlight the potential of capital mobilization and technological innovation in ensuring a successful transition to a green economy.

Key words: green economy, capital, investment environment, technological innovation, economic growth, employment, resources, environmental sustainability, problem, solution.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ перехода к зелёной экономике. Автор определяет критерии формирования зелёной экономики и раскрывает её влияние на экономический рост, занятость, рациональное использование ресурсов и экологическую устойчивость. Также рассматриваются ключевые проблемы, возникающие в процессе внедрения зелёных инициатив, и предлагаются стратегические пути их решения. Результаты исследования, основанные на международном опыте, подчёркивают важность привлечения инвестиций и технологических инноваций для успешного перехода к зелёной экономике.

Ключевые слова: зелёная экономика, капитал, инвестиционная среда, технологические инновации, экономический рост, занятость, ресурсы, экологическая устойчивость, проблема, решение.

KIRISH

So'nggi yillarda “yashil iqtisodiyot” tushunchasi jahon miqyosida keng e'tibor qozonib, mamlakatlar iqtisodiy strategiyalarida muhim o'rin egallamoqda. Yashil iqtisodiyot – bu inson farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash, shu bilan birga atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar va ekologik xavf-xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Ushbu model barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi va quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, chiqindilarni kamaytirish hamda ekologik xavfsizlikni mustahkamlash.

Bugungi kunda global miqyosda resurslardan haddan tashqari foydalanish, atrof-muhitning ifloslanishi, ob-havo sharoitining keskin o'zgarishi, o'rmonlarning kamayishi va cho'llanish jarayonining tezlashuvi ekologik inqiroz xavfini kuchaytirmoqda. Ayni paytda qashshoqlik, ishsizlik va resurslar tanqisligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tobora chuqurlashmoqda. Bu esa insoniyatni ekologik va iqtisodiy muammolarga bir vaqtning o'zida javob beruvchi innovatsion yondashuv – yashil iqtisodiyot modelini joriy etishga undamoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiy faoliyatni atrof-muhitning tabiiy imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirish, ekotizim uzluksizligini saqlab qolgan holda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Xususan, sanoatlashuv bosqichidan avval nisbatan cheklangan ko'rinishdagi ekologik muammolar hozirda global tus olib, insoniyat salomatligiga, biologik xilma-xillikka va iqlim barqarorligiga tahdid solmoqda.

Yashil iqtisodiyot – bu shunchaki ekologik tashabbus emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan yangi yondashuvdir. U tabiiy resurslar va iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi muvozanatni tiklash, mavjud muammolarni kompleks tarzda hal etish, kelajak avlodlarga qulay va xavfsiz yashash muhitini taqdim



etish yo'lidagi strategik harakatlar majmuasidir. Shu boisdan ham, yashil iqtisodiyot nafaqat bugungi kun, balki barqaror kelajak uchun ham muhim ahamiyatga ega konsepsiyalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyot sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, professor Vahobov A.V. va Xajibakiyev Sh.X. tomonidan ta'kidlanishicha, atrof-muhit iqtisodiyoti yoki ekologik iqtisodiyotdan farqli ravishda "yashil iqtisodiyot" ko'proq amaliy xarakterga ega. Ularning fikricha, yashil iqtisodiyot an'anaviy ilmiy fan sohasi bo'lmay, asosan real iqtisodiy siyosat va amaliy faoliyat sohaslariga – xususan, energetika, innovatsiya, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarga – bevosita taalluqlidir (Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. "Yashil iqtisodiyot", darslik).

S.N. Xashimova o'zining "Yashil iqtisodiyot" nomli darsligida yashil iqtisodiyotni ekologik xavflarni kamaytirishga va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy model sifatida tavsiflaydi. Unga ko'ra, yashil iqtisodiyot mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlik o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika hisobotlari, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari hamda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlil usuli asosida tahlil qilinib, yashil iqtisodiyotga o'tishda mavjud muammolar va ularning yechimlari aniqlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda global miqyosda o'zgarishlar shiddat bilan kechayotgan bir paytda, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida yashil iqtisodiyot alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Yashil iqtisodiyot nafaqat atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq xabardorlikni oshirish, balki iqtisodiyotda dolzarb muammo bo'lib qolayotgan umumiy bandlik darajasini ta'minlashga ham ijobiy hissa qo'shishi kutilmoqda.

Biroq ushbu modelga o'tish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, yashil texnologiyalar va zamonaviy infratuzilmalarga sarmoya kiritish katta moliyaviy xarajatlarni talab etadi. Bu esa, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar hamda kichik va o'rta biznes subyektlari uchun sezilarli to'siq hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim yashil texnologiyalar hali to'liq ishlab chiqilmagan yoki amaliyotda keng tatbiq etilmagan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiyani saqlash, chiqindilarni samarali boshqarish kabi yo'nalishlarda ham bir qator tizimli muammolar mavjud.

2019–yil holatiga ko'ra, dunyo mamlakatlarida energiya sig'imkorligi va atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishi bo'yicha mavjud ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, birlamchi energiya iste'molining doimiy narxlarda va valyutaning xarid qobiliyati pariteti asosida hisoblangan YalMga nisbati energiya sig'imkorligi indeksini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, uglerod sig'imkorligi ko'rsatkichi esa issiqxona gazlari emissiyasi miqdorining yalpi ichki mahsulotga nisbati bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkichlar orqali iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi mavjud tafovutlarni chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.(1-jadval)

1-jadval. Dunyo miqyosida energiyada foydalanish ko'rsatkichlari.

Mamlakat	Energiya sig'imkorligi	Mamlakat	CO ₂ intensivligi CO ₂ /doll
Ukraina	0,232	JAR	0,594
Rossiya	0,210	Qozog'iston	0,527
Venesuela	0,205	Tayvan	0,483
Tayvan	0,189	Rossiya	0,473
JAR	0,180	Ukraina	0,462
Eron	0,179	Venesuela	0,459
Qozog'iston	0,176	Eron	0,443
Kanada	0,171	Xitoy	0,379
O'zbekiston	0,152	O'zbekiston	0,372
Nigeriya	0,148	Kanada	0,330



Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi jahon miqyosida barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda tizimli muammolar mavjudligi yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini murakkablashtirmoqda. Xususan, global miqyosda quyidagi asosiy muammolar ajratib ko'rsatiladi:

1. Yashil texnologiyalar va infratuzilmalarni rivojlantirish katta hajmdagi investitsiyalarni talab etadi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun jiddiy moliyaviy yuk hisoblanadi.
2. Ayrim iqtisodiy tarmoqlarda yashil alternativ texnologiyalar hali to'liq ishlab chiqilmagan yoki ularning iqtisodiy samaradorligi past.
3. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni ba'zi an'anaviy sohalarda ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelishi mumkin.
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarida yashil iqtisodiyot siyosatini amalga oshirish uchun barqaror siyosiy muhit, samarali davlat boshqaruvi va mustahkam institutlar shakllanmagan.
5. Global ekologik muammolarni hal qilish borasida yetarli xalqaro hamkorlikning yo'qligi mavjud muammolardan biridir.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida ham qator tizimli muammolar mavjud:

1. O'zbekiston iqtisodiyoti hanuzgacha qazilma yoqilg'ilarga yuqori darajada bog'liq.
2. Energetika va transport infratuzilmasining muhim qismi modernizatsiya qilinmagan.
3. Yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun yetarli investitsiyalarni jalb etishda kamchiliklar mavjud.
4. Yashil texnologiyalar sohasida malakali kadrlarning yetishmasligi mavjud muammolardan biridir.
5. Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillari bo'yicha aholining ekologik savodxonligi past darajada.

Yuqorida keltirilgan global va milliy muammolarni hisobga olgan holda, yashil iqtisodiyotga o'tishda quyidagi yechimlar tavsiya etiladi:

- Hukumatlar tomonidan yashil investitsiyalarni rag'batlantirish, yashil texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, uglerod narxini belgilash, ekologik standartlarni kuchaytirish va subsidiyalarni qayta yo'naltirish choralari ko'rilishi lozim.
- Xususiy sektor uchun qulay investitsion muhit yaratilib, yashil loyihalarni moliyalashtirishda kafolatlar va soliq imtiyozlari taqdim etilishi muhim.
- Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash, startap va kichik biznes subyektlarini rivojlantirish orqali innovatsion yechimlar yaratilishi kerak.
- Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, ularni qayta tayyorlash va yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash orqali salbiy ijtimoiy ta'sirlar yumshatiladi.
- Aholi o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur.
- Xalqaro tajriba va moliyaviy resurslar almashinuvini yo'lga qo'yish, yashil texnologiyalar bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlikni kuchaytirish ham alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida esa quyidagi amaliy yo'nalishlar ustuvor deb e'tirof etiladi:

- Quyosh, shamol va gidroenergetika salohiyatidan to'laqonli foydalanish;
- Sanoat, transport va turar-joy sektorlarida energiya tejamkorligini oshirish;
- Qishloq xo'jaligida suvdan samarali foydalanish tizimini keng joriy etish;
- Elektromobillar, elektrobuslar va velosipedlar uchun zarur infratuzilmani yaratish;
- Chiqindilarni qayta ishlash, saralash va utilizatsiya qilish tizimlarini takomillashtirish;
- Yashil investitsiyalarni jalb etish uchun qulay me'yoriy-huquqiy asoslar yaratish;
- Ta'lim tizimida ekologik yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlash va kadrlar salohiyatini oshirish;
- Aholining ekologik ongini shakllantirish, yashil turmush tarzini keng targ'ib qilish.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan strategiyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ekologik xavfsizlik darajasini oshirish mumkin. Buning uchun esa samarali siyosiy muvofiqlashtirish, ilmiy yondashuv, moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar (2022–2023-yillar misolida)

I. 2022-yilda yashil iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishida amalga oshirilgan asosiy ishlar

1. Normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli¹ qarori qabul qilindi. Ushbu qaror doirasida quyidagi strategik hujjatlar va institutsional mexanizmlar tasdiqlandi:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-6303230>



- 2030–yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash Dasturi;
- sanoat tarmoqlarida yashil iqtisodiyotni joriy etish hamda energiya tejamkorligini oshirish Konsepsiyasi;
- Harakatlar rejas;
- yoqilg'i-energetika resurslarini tejashga qaratilgan 2022–2026-yillar uchun Maqsadli parametrlar (2026–yilgacha energiya sig'imini 2022–yilga nisbatan 20%ga kamaytirish);
- Idoralararo kengashning yangilangan tarkibi;
- Yashil iqtisodiyot bo'yicha donorlar muvofiqlashtirish guruhi;
- Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzurida tashkil etilgan loyiha ofisi va uning tarkibidagi Texnik kotibiyat.

2. Moliyaviy hamkorlik va xalqaro kreditlar jalb etilishi:

Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) bilan hamkorlikda yashil iqtisodiyotga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash maqsadida 150 million yevro miqdoridagi kredit mablag'i O'zbekiston Respublikasi byudjetiga yo'naltirildi. Bu doirada quyidagi yo'nalishlarda ishlar boshlab yuborildi:

- qazilma yoqilg'i subsidiyalarini tahlil qilish va qisqartirish;
- dekarbonizatsiya bo'yicha strategiyani ishlab chiqish;
- issiqxona gazlarini monitoring qilish, hisobga olish va audit qilish (MRV tizimi);
- yashil budjetlashtirish va soliqqa tortish tizimini joriy etish.

Shu bilan birga, 2023–2025–yillarga mo'ljallangan loyihalarni moliyalashtirish uchun Yevropa Ittifoqining 6,1 million yevro miqdoridagi granti ham jalb qilindi. O'zbekiston delegatsiyasining Fransiya safarida viloyatlar bosh rejasini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqish loyihasi doirasida 100 million yevrolik investitsiya bo'yicha dastlabki kelishuvga erishildi.

3. Qazilma yoqilg'i subsidiyalarini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish: Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi va Barqaror rivojlanish xalqaro instituti (IISD) bilan hamkorlikda qazilma yoqilg'i subsidiyalarini inventarizatsiyalash va ularni maqbullashtirish bo'yicha loyiha amalga oshirildi. Dastlabki metodologik asoslar ishlab chiqildi.

4. Global tashabbuslarda ishtirok: O'zbekiston Respublikasi 2022–yil may oyida Metan emissiyasini kamaytirish bo'yicha Global tashabbusga qo'shildi. Ushbu tashabbus doirasida 2030–yilgacha metan gazlari chiqindilarini 2020–yil darajasidan kamida 30%ga kamaytirishga doir majburiyatlar qabul qilindi. Bu yo'nalishda YeTTB tomonidan 1 million AQSH dollari miqdorida texnik yordam ko'rsatilmoqda.

5. Uglerod savdosi mexanizmlarining joriy etilishi: Jahon banki ko'magida Parij bitimining 6–moddasiga muvofiq issiqxona gazlari savdo mexanizmini joriy etish loyihasi ishlab chiqildi. TCAF fondi orqali:

- 20 million AQSH dollari grant mablag'i;
- 25 million AQSH dollari hajmidagi qo'shimcha investitsiyalar jalb qilinishi belgilandi.

6. Texnologik hamkorlik: Yaponiya bilan Joint Credit Mechanism (JCM) mexanizmi joriy etilishi yuzasidan kelishuvga erishildi. Mazkur mexanizm orqali Yaponiyaning zamonaviy past uglerodli texnologiyalarini O'zbekistonga olib kirish nazarda tutilgan. Shuningdek, Janubiy Koreya bilan iqlim o'zgarishi va issiqxona gazlari bo'yicha hamkorlik memorandumini tayyorlandi.

7. Uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqilishi: Jahon banki va YeTTB bilan birgalikda 2050–yilgacha karbon neytralligiga erishishni ko'zlovchi LTS (Long-Term Strategy) strategiyasi ishlab chiqish boshlab yuborildi. Bu strategiya asosida asosiy tarmoqlar bo'yicha kapital qo'yilmalar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar belgilab olindi.

8. Iqlim va iqtisodiyot o'zaro ta'sirini o'rganish:

Jahon banki bilan birgalikda iqlim o'zgarishining iqtisodiyotga ta'sirini tahlil etishga qaratilgan "Towards a Greener Economy" hisobot tayyorlandi va II O'zbekiston iqtisodiy forumida taqdim qilindi. Shu bilan birga, CCDD (Climate Change and Development Report) loyihasi orqali yashil moliyaviy ko'maklarni jalb qilish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

9. Texnik va institutsional salohiyatni oshirish:

Osiyo taraqqiyot banki bilan:

- iqlim bilan bog'liq C-PIMA mezonlarini davlat investitsiyalari tizimiga integratsiya qilish;
- ESG tamoyillarini sanoat korxonalarida keng joriy etish bo'yicha seminar-treninglar;
- Climate Risk Assessment Tool ishlab chiqish orqali iqlim xavflarini tahlil qilish mexanizmi yo'lga qo'yildi.

10. Aylanma iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tashabbus:

2022–yil yakunida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga "Aylanma iqtisodiyotni rivojlantirish va qattiq bioyoqilg'idan foydalanishni kengaytirish"ga oid qaror loyihasi taqdim etildi.

II. 2023–yilda yashil iqtisodiyot sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ustuvor islohotlar

1. Yashil sertifikatlar tizimini joriy etish: Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ekologik toza texnologiyalarni tasdiqlovchi "yashil sertifikat" tizimi ishlab chiqiladi hamda amaliyotga joriy etiladi. Ushbu tizim orqali qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqaruvchilari o'z mahsulotlari bilan



birga “yashil sertifikat”larni yakuniy foydalanuvchilarga (masalan, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar) sotadi. Bu energiyaning “tozaligi”ni kafolatlabgina qolmay, mahsulotlarning eksport salohiyatini oshiradi, shuningdek, xalqaro moliya institutlaridan “yashil” investitsiyalar va kreditlar jalb qilish imkonini yaratadi. (Eslatib o’tamiz, Yevropa Ittifoqi davlatlarida bunday sertifikatlar majburiy hisoblanadi.)

2. Issiqxona gazlari emissiyasini tartibga solish bo’yicha normativ hujjatlar: 2023–yil davomida “Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to’g’risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, 2023–2026–yillarda issiqxona gazlari chiqarilishini davlat nazoratida ushlab borish infratuzilmasini yaratish bo’yicha bosqichma-bosqich harakatlar dasturi ishlab chiqilishi belgilangan. Dasturda quyidagi yo’nalishlar nazarda tutiladi:

- emissiyalarni hisobga olish va davlat kadastrini yuritish;
- uglerod birliklari reyestrini shakllantirish;
- tarmoqlar kesimida maqsadli ko’rsatkichlarni belgilash;
- emissiyani kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni davlat tomonidan rag’batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

3. MRV tizimini joriy etish (Monitoring, Reporting and Verification):

Iqlim o’zgarishiga oid zamonaviy monitoring, hisobot va tekshirish tizimi – MRV joriy etiladi. Ushbu tizim orqali barcha issiqxona gazlari manbalarini doimiy kuzatib borish, ularning miqdoriy ko’rsatkichlarini tahlil qilish va kamaytirish bo’yicha amaliy choralarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

4. Loyihalarni karbon intensivligi bo’yicha baholash va mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish:

Har qanday loyihani rejalashtirishdan avval, uning natijasida emissiyalar miqdorini qisqartirish salohiyati baholanadi. Shu asosda emissiyaning qisqarishini sertifikatlashtirish va ekologik toza mahsulotlarni xalqaro, ayniqsa Yevropa Ittifoqi kabi yuqori talab qo’yiladigan bozorga yo’naltirish amaliyoti joriy etiladi. Bu usul “yashil eksport” hajmini kengaytirishga xizmat qiladi.

5. Qazilma yoqilg’ilarga qaratilgan subsidiyalarni qayta ko’rib chiqish: Qazilma yoqilg’i tarmog’ini sun’iy raqobatbardosh holatga keltiruvchi barcha turdagi davlat subsidiyalari va imtiyozlari xatlovdan o’tkaziladi. Ushbu chora-tadbirlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan teng sharoitda raqobatni ta’minlashga qaratilgan.

6. “Yashil kafolat” dasturi va resursga asoslangan tadbirkorlikni rivojlantirish: “Green Wager” dasturini joriy qilish orqali tabiiy resurslarga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va yangi ish o’rinlari yaratish bo’yicha aniq takliflar ishlab chiqiladi. Bu doirada:

- “yashil” tadbirkorlikni rag’batlantirish;
- tabiiy resurslarga asoslangan biznes loyihalarini sinov tariqasida yo’lga qo’yish;
- ularni keng miqyosda joriy qilish bo’yicha institutsional va moliyaviy qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirish rejalashtirilgan.

7. ESG tamoyillarini joriy qilish bo’yicha takliflar ishlab chiqish:

2023–yil mart oyigacha xorijiy ekspertlar ishtirokida sanoat korxonalarida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish jarayonini tezlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar paketi ishlab chiqiladi. Bu takliflar, xususan, ESG mezonlarining korporativ boshqaruv amaliyotiga integratsiyasini ta’minlashga yo’naltiriladi.

8. Uglerod birjasi faoliyatini yo’lga qo’yish (Carbon Trade):

Jahon banki hamda uning tarkibidagi Transformative Carbon Asset Facility (TCAF) bilan hamkorlikda O’zbekistonda karbon kreditlari savdosi bo’yicha pilot loyiha amalga oshiriladi. Mazkur loyiha doirasida qisqartirilgan issiqxona gazlari bo’yicha xalqaro savdo mexanizmi tajriba tariqasida sinovdan o’tkaziladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy o’sishni ekologik barqarorlik tamoyillari bilan uyg’unlashtirgan holda, barqaror rivojlanishni ta’minlashga yo’naltirilgan innovatsion iqtisodiy modeldir. Mazkur model tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilar miqdorini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni o’zining asosiy ustuvor yo’nalishlari sifatida belgilaydi.

Yashil iqtisodiyotga o’tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, tizimli islohotlar, institutsional moslashuv va strategik investitsiyalarni talab etuvchi murakkab transformatsion yo’ldir. Bu jarayonda davlat organlari, xususiylar, fuqarolik jamiyati hamda xalqaro hamkorlarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yangi ish o’rinlari yaratish, innovatsion texnologiyalarni rag’batlantirish va jamiyatda ijtimoiy farovonlik darajasini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, yashil iqtisodiyot – kelajak avlodlar manfaati yo’lida ekologik mas’uliyatli va iqtisodiy jihatdan samarali taraqqiyotning muqobil yo’nalishidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Vahobov A.V. va Xajibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot. Darslik. – Toshkent: “Universitet”, 2020.
2. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. – Toshkent: “Ma’rifat”, 2024.
3. Bakhtiyorovna N.S. va boshqalar. Novative Solutions for Ensuring Employment of the Population and Establishing Human Resources Relations of Production // Journal of New Century Innovations. – 2025. – T. 70. – № 2. – B. 85–88.
4. Nazirova S., Usmonova S. Qishloq xo'jaligi korxonalarida investitsion faollikni oshirish bo'yicha xorij tajribalari // Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – № 2. – B. 955–961.
5. Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborotnomasi.
6. Aglietta, Michel, Bai, Guo. China's 13th Five-Year Plan: In Pursuit of a “Moderately Prosperous Society” (No. 2016-12), CEPII Research Center.
7. Ağca, Barçın. Dünya Sürdürülebilir Kalkınma Zirvesi. http://www.mfa.gov.tr/dunyasurdurulebilir-kalkinma-zirvesi_johannesburg_-26-agustos---4-eylul-
8. Кальнер В.Д., Полозов В.А. «Зеленая» экономика и безальтернативные ресурсы природы. – М.: Калвис, 2016. – 576 с.
9. <https://uz.wikipedia>
10. <https://review.uz>
11. <https://www.cfr.org>
12. <https://openaccess.hacettepe.edu>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
